

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA KAMOLA AKRAMOVNA

TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(dehqon va tomorqa xo'jaliklari misolida)

08.00.13 – «Menejment» ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy
(PhD) on economical sciences**

Muxamedjanova Kamola Akramovna

Та’минот zanjirini boshqarish mexanizmini takomillashtirish (dehqon va tomorqa xo‘jaliklari misolida) 3

Мухамеджанова Камола Акрамовна

Совершенство механизма управления цепочкой поставок (на примере дехканских и приусадебных хозяйств)..... 25

Mukhamedjanova Kamola Akramovna

Improving the mechanism of supply chain management (in the case of farmers and homesteads)..... 49

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

MUXAMEDJANOVA KAMOLA AKRAMOVNA

TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(dehqon va tomorqa xo'jaliklari misolida)

08.00.13 – «Menejment» ixtisosligi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt.4239 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xalqaro Nordik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nordicuniversity.org) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ismailov Akmal Maxsudovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Xodiyeva Gulmira Baxodirovna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sebzor ko'chasi, 22A uy, 2-bino 1-qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya bilan Xalqaro Nordik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sebzor ko'chasi, 22A uy, Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi.)

Sh.I. Mustafakulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.f.d. (PhD), dotsent

B.T. Salimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon muvaffaqiyatli ta'minot zanjiri boshqaruvi asosiy biznes-jarayonlarini yetkazib beruvchilardan yakuniy iste'molchilargacha birlashtirishni, mahsulotlarning uzluksiz oqimini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha mutaxassislar kengashining ma'lumotlariga ko'ra korxonada daromadining 30 foizini, mahsulot narxining 80 foizini, operatsion xarajatlarning 75 foizini ta'minot zanjirini boshqarish mexanizmining samaradorligi belgilab berilgan¹. Qiymati 15,85 milliard AQSH dollari bo'lgan ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha global bozor 2033-yilga kelib 85,3 milliard AQSH dollarga yetishi hamda 2023-yilga nisbatan yillik o'sish sur'ati 11,1 foizni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda². Shu boisdan, ta'minot zanjirini boshqarish har qanday katta yoki kichik biznes samaradorligini belgilashda muhim hisoblanmoqda.

Jahon hamjamiyatidagi muhim tendensiyalardan ta'minot zanjiri bo'ylab barqarorlikka erishish, mahsulot yo'qotishlarini kamaytirish, yo'qotishlarning oldini olish, moliyaviy inqirozlarga chidamlilikni oshirish va ularning ta'sirini yumshatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, ta'minot zanjirlaridagi xavflarni aniqlash, baholash va favqulodda vaziyatlar rejalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida jarayonlarni optimallashtirish shuningdek, innovatsion yondashuvlar ko'lamini kengaytirish ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'minot zanjirining rivojlanishi raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanib, «Global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo'shilish, respublika hududlarida 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi agrologistika markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish» vazifasi belgilangan³. Bu boradagi vazifalarni samarali amalga oshirish ta'minot zanjiri bilan bog'liq yo'nalishlarni chuqur o'rganish, zamonaviy modellashtirish usul va yo'llaridan foydalangan holda zanjirlarda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish, tarmoqning statistik tahlili hamda rivojlanish salohiyatini oshirish tendensiyasini prognozlashning ko'p omilli empirik modellarini asoslash singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» Strategiyasi to'g'risida, 2024-yil 5-martdagi PQ-115-son «Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar» to'g'risida, 2024-yil 1-apreldagi PQ-146-son «Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o'tkazilgan muloqotida belgilangan

¹ 2024 CSCMP European Conference Unleashing Resilient, Sustainable Supply Chains June 20 - 21, 2024

² Allied Market Research. «Supply Chain Management Market Statistics: 2027.»

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi farmoni.

vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari» to‘g‘risida», 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta‘minot zanjirini boshqarish va logistika sohasi bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalarni hamda zanjirdagi yo‘qotishlarni bartaraf etish bo‘yicha xorijlik olimlardan M.Christopher, L.Cooper, M.Ellram, R. Bamou, J.F.Shapiro, J.Katalin, Ph.Wieser, Van der Vorst, Abuzaid, J.Alfredo, Ch.Chauhan, T.Ying, N.Luo, R.Akkerman, D.Mmerekini izlanishlar olib borishgan⁴.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida turli sohalarda ta‘minot zanjirini boshqarish borasidagi ilmiy-nazariy asoslarni A.M.Gadjinskiy, Y.M.Nerush, V.Ye.Nikolaychuk, L.B.Mirotin, O.A.Mitko, S.N.Naglovskiy, A.D.Chudakov, A.U.Albekov, I.D.Ivanov, V.S.Lukinskiy, D.Bugaykolar tadqiq etishgan. Shuningdek, ta‘minot zanjirini boshqarish tendensiyalari bo‘yicha Ye.V.Bersten, R.S.Rogulin va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan⁵.

⁴ Christopher, M. (2016) Logistics and Supply Chain Management. 5th Edition, Pearson, London; Cooper, M. and Ellram, L. "Characteristics of Supply Chain Management and the Implications for Purchasing and Logistics Strategy", International Journal of Logistics Management, The, Vol. 4 No. 2, pp. 13-24.; Van der Vorst, J. and Beulens, A. "Identifying sources of uncertainty to generate supply chain redesign strategies", International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, Vol. 32 No. 6, pp. 409-430.; Lisa M. Ellram, Monique I. Ueltschy Murfield, Supply chain management in industrial marketing–Relationships matter, Journal of Industrial Marketing Management. 79 (2019) 36.; Abuzaid, Ahmad & Alateeq, Manal & Baqleh, Lubna & Madadha, Saif-Aldeen & Al-Haraisa, Yazan. Uncertain Supply Chain Management The moderating effect of strategic momentum on the relationship between big data analytics capabilities and lean supply chain practices. Uncertain Supply Chain Management. 11. 1-14. 10.5267/j.uscm.2023.4.013.; Cerqueira-Streit, Jorge Alfredo, Patricia Guarnieri, Luciel Henrique de Oliveira, and Jacques Demajorovic. 2023. "From Trash to Profit: How Packaging Waste Management Has Driven the Circular Economy—An Integrative Literature Review" Logistics 7, no. 3: 66; Chetna, Ch. «Food loss and waste in food supply chains. A systematic literature review and framework development approach», Journal of Cleaner Production, Volume 295, 2021, ISSN 0959-6526; T. Ying. (2022). Minimizing Waste in the Food Supply Chain: Role of Information System, Supply Chain Strategy, and Network Design. Sustainability. 14. 11515. 10.3390/su141811515; N. Luo, Reducing food loss and waste in supply chain operations, Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review, Volume 162, 2022, ISSN 1366-5545; Akkerman, R., (2024). Food Loss, Food Waste, and Sustainability in Food Supply Chains. Springer Series in Supply Chain Management, vol 23. Springer, Cham.; Mmerekini D, «The management and prevention of food losses and waste in low- and middle-income countries. Waste Management & Research. 2024;42(4):287-307.

⁵ Гаджинский А.М. Основы логистики: учебное пособие/А.М. Гаджинский - М.: «Дашков и Ко., 2016. - 419с. Иванов Д.А. Управление цепями поставок-СПб: Изд-во Политехн. ун-та, 2009, - 660 стр.; Неруш, Ю. М. Логистика: учебник для академического бакалавриата / Ю. М. Неруш, А. Ю. Неруш. — 5-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 559 с.; Логистика и управление цепями поставок : учебник и практикум для академического бакалавриата / В. С. Лукинский, В. В. Лукинский, Н. Г. Плетнева. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 359 с.; Олександрович, Бугайко & Reznik, Volodymyr & Olga, Shevchenko & Gurina, Ganna & Podrieza, Serhii & Hryhorak, Mariia & Garmash, Oleg & Popkovskiy, Tadeusz & Kyrylenko, Oksana & Novak, Valentyna & Podrieza, Mykhailo. (2023). Intellectualization of logistics and Supply Chain Management #19-2023. Electronic Scientific Journal Intellectualization of Logistics and Supply Chain Management #1 2020. 65. 10.46783/smart-scm/2023-19.; Берстен Е.В. Эволюция концепции «цепочки поставок». прогноз

O‘zbekistonda ta‘minot zanjirini boshqarish va logistika sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari G‘.A.Samatov, Y.K.Karriyeva, F.R.Galimova, B.I.Kamildjanov, J.R.Qulmuhamedov, Sh.T.Xomidova, Q.A.Dadaboyev, N.R.Asadullina, E.Kamalova, S.Ye.Bekjanova, I.B.Rustamova, J.S.Fayzullayevlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligida logistik boshqaruv masalalari bo‘yicha O.G.Dilmurodov va N.X.Bo‘riyevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan⁶.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Xalqaro Nordik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan samarali foydalanish» mavzusidagi ilmiy loyiha (2022-2024-y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta‘minot zanjirini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ta‘minot zanjirining shakllanishi va uni boshqarish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

meva-sabzavot mahsulotlari ta‘minot zanjirini boshqarishning mavjud holati va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

meva-sabzavot mahsulotlari ta‘minot zanjiridagi vujudga kelayotgan mahsulot yo‘qotishlarini tahlil qilish;

ta‘minot zanjiridagi mahsulot yo‘qotishlariga ta‘sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash;

meva-sabzavot mahsulotlari ta‘minot zanjiri boshqaruvida dehqon va tomorqa xo‘jaliklari rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy masalalari va ularni hal etish yo‘llarini ekonometrik modellashtirish;

на 2023-2024 гг. в области управления цепочками поставок в России и Китае / Е.В. Берстень, Ю. Ван // Международный научно-исследовательский журнал. — 2023. — №6 (132).; Р.С.Рогулин, Н.П.Белозерцева (2023). Бережливое управление цепями поставок: анализ накопленного опыта. Вестник Марийского государственного университета. Серия «Сельскохозяйственные науки. Экономические науки», 9(3), 320-329. doi: 10.30914/2411-9687-2023-9-3-320-329.;

⁶ Samatov, G.A., (2015). Concepts and models of logistics management. Tashkent: Science and Technology, 232.; Карриева, Я. (2023). Логистика таможиллари асосида савдо тизимини такомиллаштириш. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(02), 19–25.; Galimova F. Organizational and economic mechanism for the development of innovative processes in agriculture in Uzbekistan: //Archive nauchnyx issledovaniy. – 2021. – Т. 1. – №. 1.; Камильджанов Б.И. Интеграция задач логистики-важнейший инструмент стратегического управления //Информатика: проблемы, методология, технологии. – 2015. – С. 422-427. J.R. Qulmuxamedov. O‘quv qo‘llanma. Logistika asoslari. -Т.: «Fan va Tehnologiya 2015,160 bet.; Sh.T.Xomidova. (2022). Transport logistikasi tizimini tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati. Scientific progress, 3 (1), 617-625.; Q.A. Dadaboyev. Logistika/O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 236 b.; Асадуллина Н. Р. Современные подходы в реализации цифровой логистики / Н. Р. Асадуллина // Логистика - Евразийский мост: материалы XVIII Междунар. науч.-практ. конф. (Красноярск, 27-30 апр. 2023 г.). - Красноярск, 2023. - С. 26-31.; Э.А.Камалова. Совершенствование логистического управления перевозками грузов. Икт. фан. фалсафа. док.дис. Автореф. Тошкент -2019. – 51 б.; Бекжанова, С.Е. Основы логистики снабжения на предприятии // Молодой ученый. — 2021. — № 22 (364). — С. 171-173.; Ж.С.Файзуллаев. Интеграциялашган транспорт логистика тизимини бошқариш самарадорлигини ошириш («Ўзбекистон темир йўллари» АЖ мисолида). Икт. фан. фалсафа. док.дис. Автореф., Тошкент-2019. -56 б.; О.Г.Дилмуродов, Иқтисодий эркинлаштириш шароитида мева-сабзавотчилик мажмуида махсулот сотишинг логистик занжирини такомиллаштириш, дисс.2010.; Н.Х.Бўриева, Қишлоқ хўжалиги тизимида логистика муаммоларининг тадқиқоти, дисс. 2006.;

meva-sabzavot mahsulotlari ta'minot zanjiri boshqaruvi mexanizmini samaraliboshqarish omillaridan foydalanishning istiqboldagi holatini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta'minot zanjiridagi dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini ta'minot zanjirida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy mushohada, statistik tahlil, SEM (Structural Equation Modeling) modeli, PCA (Principal Component Analysis) modeli, so'rovnoma, tanlanma kuzatuv hamda intervyu usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuv asosida tashkilotlarning samaradorlik, qiymat va rentabellikni oshirish orqali operatsion mukammallikka erishishi uchun ishlab chiqarishdagi mavjud ta'minot zanjiri boshqaruvi va operatsion boshqaruv xususiy tamoyillarining mazmuni ularning strategik yo'nalishiga ko'ra takomillashtirilgan;

meva-sabzavot ta'minoti zanjirida hosildan keyingi, saqlashdagi hamda tashishdagi mahalliy yo'qotishlarni asosiy komponentlar usulidan (Principal Component Analysis) foydalanib bir indeks ostida birlashtirish orqali umumiy daromadning yo'qotishlarga ta'sirini baholash qiymatlari ilmiy jihatdan asoslangan;

ta'minot zanjirining dastlabki bo'g'ini ishtirokchilarining daromadlarini oshirish maqsadida mikromoliya tashkiloti va mijoz o'rtasida tuzilgan birinchi shartnoma obyektini xususiyatlari bilan mos keluvchi tovarni uchinchi shaxs bilan tuziladigan ikkinchi salam shartnomasi doirasida sotish hamda kelajakda yetkazib beriladigan tovarlar bo'yicha to'lovlarni mikromoliya tashkiloti tomonidan oldindan to'lab berish orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda ta'minoti zanjiri boshqaruvining barqaror rivojlanish dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuv asosida tashkilotlarning samaradorlik, qiymat va rentabellikni oshirish orqali operatsion mukammallikka erishishi uchun ishlab chiqarishdagi mavjud ta'minot zanjiri boshqaruvi va operatsion boshqaruv xususiy tamoyillarining mazmuni ularning strategik yo'nalishiga ko'ra takomillashtirilgan. Ushbu nazariy ma'lumotlaridan oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan «Logistika» faniga oid darslik tayyorlashda foydalanilgan;

meva-sabzavot ta'minoti zanjirida hosildan keyingi, saqlashdagi hamda tashishdagi mahalliy yo'qotishlarni asosiy komponentlar usulidan (Principal Component Analysis) foydalanib bir indeks ostida birlashtirish orqali umumiy daromadning yo'qotishlarga ta'sirini baholash qiymatlari ilmiy jihatdan asoslangan. Bu orqali mahsulot yo'qotishlarining 2 foizga kamayishiga erishilgan;

ta'minot zanjirining dastlabki bo'g'ini ishtirokchilarining daromadlarini oshirish maqsadida mikromoliya tashkiloti va mijoz o'rtasida tuzilgan birinchi shartnoma obyektini xususiyatlari bilan mos keluvchi tovarni uchinchi shaxs bilan tuziladigan ikkinchi salam shartnomasi doirasida sotish hamda kelajakda yetkazib beriladigan tovarlar bo'yicha to'lovlarni mikromoliya tashkiloti tomonidan

oldindan to'lab berish orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirilgan. Bunga ko'ra, mahsulot yetishtiruvchilarning iqtisodiy ahvoli 0.253 birlikka oshishiga erishildi;

O'zbekistonda ta'minoti zanjiri boshqaruvining barqaror rivojlanish dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Bunga ko'ra, mahsulot hajmining 12 foizga oshishi kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan, xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, O'zbekistonda ta'minot zanjiri faoliyatini rivojlantirish hamda uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda menejmentning rolini oshirish, ta'minot zanjirida mahsulot yo'qotishlarini bartaraf etish bo'yicha mintaqaviy dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'minot zanjirini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif hamda tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuv asosida tashkilotlarning samaradorlik, qiymat va rentabellikni oshirish orqali operatsion mukammallikka erishishi uchun ishlab chiqarishdagi mavjud ta'minot zanjiri boshqaruvi va operatsion boshqaruv xususiy tamoyillarining mazmuni ularning strategik yo'nalishiga ko'ra takomillashtirishga oid nazariy ma'lumotlaridan oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan «Logistika» faniga oid darslik tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashkilotlarda samaradorlikni oshirish, resurslarni maqsadli taqsimlash, hamkorlikni yaxshilash, strategik moslashish, doimiy takomillashtirish hamda logistika va ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha nazariy-uslubiy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

meva-sabzavot ta'minoti zanjirida hosildan keyingi, saqlashdagi hamda tashishdagi mahalliy yo'qotishlarni asosiy komponentlar usulidan (Principal Component Analysis) foydalanib bir indeks ostida birlashtirish orqali umumiy daromadning yo'qotishlarga ta'sirini baholash qiymatlarini ilmiy jihatdan asoslanishi bo'yicha bergan takliflari O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 6-oktabrdagi 11/03-15-8242-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, mamlakat doirasida mahalliy yo'qotishlar indeksining ishlab chiqilishi va qo'llanilishi yo'llari ko'rsatib berilgan hamda mahsulot yo'qotishlarining 2 foizga kamayishiga erishilgan;

ta'minot zanjirining dastlabki bo'g'ini ishtirokchilarining daromadlarini oshirish maqsadida mikromoliya tashkiloti va mijoz o'rtasida tuzilgan birinchi shartnoma obyektini xususiyatlari bilan mos keluvchi tovarni uchinchi shaxs bilan

tuziladigan ikkinchi salam shartnomasi doirasida sotish hamda kelajakda yetkazib beriladigan tovarlar bo'yicha to'lovlarni mikromoliya tashkiloti tomonidan oldindan to'lab berish orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha bergan takliflari O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi tomonidan amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 6-oktabrdagi 11/03-15-8242-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi natijasida, mahsulot yetishtiruvchilarning iqtisodiy ahvoli 0.253 birlikka oshishiga erishilgan.

O'zbekistonda ta'minot zanjiri boshqaruvining barqaror rivojlanish dinamikasini ekonometrik modellashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilishi bo'yicha berilgan takliflari O'zbekiston Savdo Sanoat Palatasining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2021-yil 6-oktabrdagi 11/03-15-8242-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmining 2023-yilga nisbatan 2030-yilda 12 foizga oshishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilib, ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 8 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 131 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ta'minot zanjirini boshqarish mexanizmining ilmiy va nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida ta'minot zanjirining mavjud an'anaviy boshqaruv sharoitida ta'minot zanjiri boshqaruvining operatsion boshqaruv xususiy tamoyillari, «ta'minot zanjiri» atamasiga berilgan ta'riflar va yondosh tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ta'minot zanjiri konsepsiyasiga ilmiy yondashuvlar, ta'minot zanjirini boshqarishni samarali tashkil etish ahamiyati bo'yicha ilmiy nazariyalar, ta'minot zanjiri boshqaruvining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida muallifning qarashlari keltirilgan. Shuningdek, ta'minot zanjiri va operatsion boshqaruvning turli sohalar ekanligi borasida olimlar fikrlari keltirilgan

hamda muallif tomonidan asosiy me'zonlari bo'yicha ajratib berilgan.

«Ta'minot zanjiri boshqaruvi» atamasining g'arb, MDH davlatlari va mahalliy olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar mohiyati jihatidan biri-biriga yaqindir. Barcha ta'riflarni umumlashtirgan holda: «Ta'minot zanjirini boshqarish – bu mahsulotning ishlab chiqaruvchidan oxirgi iste'molchiga muqobil narxda, yuqori qiymatga ega holda, o'z vaqtida yetkazib berish jarayonining uzluksizligini boshqarishdir», – deyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, aksariyat tadqiqotlar turli kontekstlarda operatsiyalarni boshqarish amaliyoti va ta'minot zanjirini boshqarish doimiy ravishda bir jarayon sifatida qaragan bo'lsa-da, aslida materiallar, ma'lumotlar va resurslarning tashkilot chegaralari bo'ylab samarali oqimini ta'minlashda ikkisi asosiy rol o'ynaydi va o'z vazifalariga ega⁷. Operatsiyalarni boshqarish ichki jarayonlarga qaratilgan bo'lsa, ta'minot zanjiri boshqaruvi tashqi manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda butun yetkazib berish jarayonini o'z ichiga oladi. Birgalikda ular tashkilotlarning samarali ishlashiga hissa qo'shadi, natijada qiymat va muvaffaqiyatga erishadi. 1-jadvalda ta'minot zanjiri va operatsion boshqaruvning asosiy me'zonlarga ko'ra turli vazifalarga ega ekanligi ajratib berilgan.

Operatsiyalarni boshqarish moliyani kuzatish, ma'lumotlarni boshqarish, materiallar bilan ishlash va ishlab chiqarishni rejalashtirish kabi ichki jarayonlarni nazorat qilishga qaratilgan. Bu resurslarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va tashkilot ichidagi uzluksiz operatsiyalarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Operatsion menejerlar jarayonlarni tartibga solish, xarajatlarni kamaytirish va sifat standartlarini saqlash uchun javobgardir.

1-jadval

Ta'minot zanjiri boshqaruvi va operatsion boshqaruv⁸

Me'zonlar	Ta'minot zanjiri boshqaruvi	Operatsion boshqaruv
<i>Strategik yo'nalish</i>	Butun ta'minot zanjirining raqobatdosh afzalliklariga va qiymat yaratishga e'tibor qaratadi	Tashkilot ichidagi taktik va operatsion takomillashtirishga qaratilgan
<i>Faoliyat ko'lam</i>	Mijozlarga yakuniy mahsulotlarni yetkazib berish uchun turli kompaniyalar bilan jarayonlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan	Ichki jarayonlar va funksiyalarni optimallashtirishga qaratilgan
<i>Ta'sir doirasi</i>	Tovarlarning xom-ashyodan xaridorlarga yetkazib beriladigan yakuniy mahsulotga samarali harakati va o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarga e'tibor qaratadi	Tashkilot jarayonlarining samaradorligi, mahsuldorligi va sifatiga e'tibor qaratadi
<i>Turli sohalarda qo'llanilishi</i>	Ta'minot zanjiri faoliyati odatda barcha sohalarda bir xil bo'ladi	Operatsion jarayonlar har xil va ishlab chiqarilayotgan sanoat yoki mahsulot turiga bog'liq
<i>Moslashuvchanligi</i>	Uchinchi tomon ta'minot zanjiri boshqaruvini osongina amalga oshirishi mumkin	Operatsion boshqaruvni autsorsing qilish mumkin emas, ma'lumotlar juda nozik va ichki xodim tomonidan amalga oshiriladi
<i>Muddat</i>	Uzoq muddatli rejalashtirish	Qisqa muddatli rejalashtirish

⁷Salah A, Çağlar D, Zoubi K. The Impact of Production and Operations Management Practices in Improving Organizational Performance: The Mediating Role of Supply Chain Integration. Sustainability. 2023; 15(20):15140.

⁸ Muallif ishlanmasi

Ta'minot zanjiri boshqaruvi tovarlar yoki xizmatlarning butun ishlab chiqarish oqimini, xomashyodan tortib, yakuniy mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Bu ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonida ishtirok etadigan yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, distribyutorlar va chakana sotuvchilar tarmog'ini boshqarishni o'z ichiga oladi. Ta'minot zanjiri menejerlari tovarlar va xizmatlarning samarali oqimini ta'minlash uchun xaridlar, logistika, zaxiralarni boshqarish va talabni prognozlash kabi faoliyatni muvofiqlashtiradi.

Operatsiyalarni boshqarish birinchi navbatda ichki jarayonlarga qaratilgan bo'lsa-da, ta'minot zanjiri boshqaruvi tashqi manfaatdor tomonlarni o'z ichiga olish uchun tashkiliy chegaralardan tashqariga chiqadi. Bu yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni o'rnatish, yetkazib beruvchilar ish faoliyatini boshqarish, transport va tarqatish tarmoqlarini optimallashtirish va mijozlarga o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Ta'minot zanjiri menejerlari ta'minot zanjiri ish faoliyatini yaxshilash uchun barqarorlik, xavflarni boshqarish va global optimallashtirish kabi omillarni ham hisobga oladi.

Ta'minot zanjiri boshqaruvi va operatsion boshqaruvning integratsiyasi tashkilotlarning operatsion mukammallikka erishishi uchun juda muhimdir. Ta'minot zanjirini samarali boshqarish samarali ichki operatsiyalarga tayanadi, operatsiyalarni boshqarish esa yaxshi boshqariladigan ta'minot zanjiridan foyda oladi. Ikkala fan ham samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va umumiy biznes samaradorligini oshirishga qaratilgan.


Dissertatsiyaning «**Ta'minot zanjirini boshqarish va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili**» nomli ikkinchi bobida monografik tadqiqot asosida mamlakatda ta'minot zanjiri rivojlanish holati, zanjir ishtirokchilarining faolligi va ularni qo'llab quvvatlash darajasi, zanjirda kelib chiqayotgan yo'qotishlar hamda ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, qishloq aholisining turmushi, ish joylari va mamlakatdagi 36,8 milliondan ortiq aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga jahon bozorlariga sarxil meva-sabzavotlar eksport qilish orqali valyuta tushumini ta'minlashga imkon beradi. Qishloq xo'jaligi sohasi yalpi ichki mahsulotning 32 foiz tashkil etadi va 3,6 million kishini ish bilan ta'minlaydi, bu mamlakat ishchi kuchining 27 foiz va mahsulot eksportining 20-25 foiz tashkil qiladi⁹.

1-rasmga e'tibor bersak, 2000-yildan 2023-yilgacha meva-sabzavotlarning o'sish sur'atining barqaror tendensiyasini ko'rsatmoqda. Sabzavotlarning eng yuqori nuqtasi 2023-yilda 12000 tonnaga yaqinlashganda, mevalar mos ravishda taxminan 3000 tonnaga yetgan. Meva va rezavorlarda sezilarli o'sish 2018-2023-yillar oralig'iga to'g'ri kelyapti. Sabzavotlar esa 2015-yildan keyin keskin o'sishni

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan.

ko'rsatmoqda, eng yuqori o'sish sur'atlari davr oxiriga to'g'ri kelgan. Meva-sabzavotlar hajmining yildan-yilga oshib borishi ta'minot jarayonidagi bir qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, sohani isloh qilishda zamonaviy boshqaruv tizimi va innovatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda sohada qator masalalarni ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.



1-rasm. 2000-2023-yillar mobaynida meva-sabzavotlar yetishtirishning o'sish sur'atlari (ming tonna)¹⁰

Yangiligicha saqlangan ho'l mevalar assortimenti mo'lligi bozorlarda shu turdagi mahsulotlar tannarxining har yili qishki-bahorgi mavsumda sun'iy ravishda ko'tarilib ketishining oldini oladi hamda aholi ijtimoiy himoyasiga ijobiy ta'sir etib, turdosh mahsulotlar qishki mavsumdagi importiga hojat qolmaydi.

Meva-sabzavot ta'minoti zanjiri hosildan iste'molchiga yetib borgunga qadar o'zgarib turish xususiyatidan kelib chiqib murakkab sanaladi. Ular mahsulotning cheklangan saqlash muddati, talab va taklif hamda narxlarning o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ichida meva-sabzavotlar eng ko'p yo'qotishlarga duch keladigan mahsulotlar turiga kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi hamjamiyati ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha bir yilda inson iste'moli uchun yetishtirilgan mahsulotning 1/3 qismi, ya'ni 1,3 mlrd tonnasi nobud bo'ladi. Ba'zi baholashlarga ko'ra, yetishtiruvchi dalasidan yig'ib olingan meva-sabzavotning 30–40 foizga yaqini nobud bo'ladi yoki iste'molga yaroqsiz holatga kelganligi sababli tashlab yuboriladi¹¹.

Tadqiqotimiz uchun Stata dasturida asosiy komponentlar tahlili yordamida meva-sabzavotlar yo'qotish indeksini ishlab chiqish ma'lumotlardagi asosiy nuqtalarni aniqlash, o'lchamlarni kamaytirish va fazalar bo'yicha yo'qotishlarning o'zgarishining eng muhim manbalarini qamrab oladigan kompozit indeksni ishlab chiqish bo'yicha statistik yondashuvni o'z ichiga oladi.

Asosiy komponentlar tahlilini qo'llashdan oldin, meva-sabzavotlar yo'qotilishining taqsimlanishi va xususiyatlarini tushunish uchun statistik tahlil paketida tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilingan. Quyidagi jadvalda omilli tahlil uchun tanlab olingan o'zgaruvchilar ko'rsatilgan. Tadqiqot doirasida olingan aynan

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan.

¹¹<https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/46a412ec-203b-4e1f-8ed0-5169591972cf/content/index.html>

yo‘qotishlarga ta’sir etuvchi bir qancha omillarni, ulardan qolganlarini izohlovchi bir nechtasini matritsaga solib, hisoblab eng maqbulini tanlab beradi. Bu yerda, qiymatlari 1 dan katta bo‘lgan komponentlar tanlanadi, ya’ni variatsiya 10 foizdan katta bo‘lishi kerak¹². O‘zgaruvchilarning komponentlardagi og‘irligi -0,30 yoki 0,30 dan katta bo‘lganlari tanlab olingan (2-jadval).

2-jadval

Tanlangan o‘zgaruvchilarning komponentlardagi og‘irligi va post estimatsiya testlari natijalari ¹³

O‘zgaruvchi	Komponent 1	Komponent 2	Komponent 3	Komponent 4
Yuqori haroratda saralash va qadoqlash	-0.7727	-0.0356	-0.0356	0.6234
Saqlash normalariga rioya qilinmaslik	0.5247	-0.6043	-0.2941	0.5226
Yetkazib berish vaqtining uzunligi	0.2614	0.7823	-0.3448	0.4480
Omborxonalarining daladan/bog‘dan uzoqda joylashganligi	0.2436	0.0987	0.8907	0.3709
Korrelyatsiya matritsasini aniqlash				
<i>Determinant</i>			0.085	
Bartlet testi				
<i>Chi-kvadrat</i>			839.217	
Erkinlik darasi			10	
<i>P-qiymat</i>			0.000	
<i>Kaiser Mayer Olkin o‘lchovi</i>			0.50	


Tanlangan o‘zgaruvchilarning komponentlardagi og‘irliklariga e’tibor qaratsak, yuqori haroratda saralash va qadoqlash ishlarining olib borilishi (-0.77) va saqlash normalariga rioya etilmaslik (0.52) o‘zgaruvchilarning komponentlardagi og‘irliklari talab bo‘yicha mos kelmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, shu 2 ta o‘zgaruvchi (yuqori haroratda saralash va qadoqlash ishlarining olib borilishi hamda saqlash normalariga rioya etilmaslik), ya’ni yo‘qotishlarga sabab bo‘layotgan aynan shu ikki muammo qolganlarini o‘zida namoyon etadi. Bartletning testi shuni ko‘rsatadiki, korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi Chi-kvadrat statistikaga mos keladigan p-qiymatga ega. P qiymati 0.000 ga teng, bu 0,05 dan kam, tahmin qilingan ahamiyatlilik darajasi, bu o‘zgaruvchilarning korrelyatsiya matritsasi muhim emasligi haqidagi gipotezaning rad etilganligini ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash kerakki, ma’lumotlar 344 namunadan olingan o‘zgaruvchilardan deyarli 86 baravar katta. Kaiser Mayer Olkin Measure tanlangan omillarning adekvatligini izohlaydi, bunda qiymat 0.50dan 0.59gacha hisobga olinadi (measurable). Ushbu testlar tanlangan model uchun omilli tahlilidan foydalanishni oqlaydi.

Navbat ushbu yo‘qotishlar indeksini bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida

¹² Llc, s. (n.d.). Stata structural equation modeling reference manual

¹³ Stata 15 statistik tahlil dasturida muallif tomonidan ishlangan

yo‘qotishlar (Y) indeksi, mustaqil o‘zgaruvchi umumiy daromad (X4). Tanlangan omillar bo‘yicha tadqiqotda tuzilmaviy tenglamalarni modellashtirishdan foydalanilgan. Boshqa omillarni o‘zgarimas deb hisoblaganda, ta‘minot zanjirining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lmish yetishtiruvchining daromadini 1 foizga oshishi yo‘qotishlarning 2 foizga kamayishiga olib keladi va bu statistik ahamiyatga ega ($p < 0.018^{**}$).



2-rasm. SEM modelning tasviriy ko‘rinishi¹⁴


Tenglamaning muvofiqligi to‘g‘risida hisobot beruvchi kengaytirilgan statistika (estat eqgof)-determinatsiya koeffitsienti orqali tanlangan modelning to‘g‘ri ekanligini asoslab beruvchi, ya‘ni biz izohlayotgan bog‘liq o‘zgaruvchining o‘zgarishi qay darajada mustaqil o‘zgaruvchilar bilan ifodalanishini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. R-kvadrat 0.87, ya‘ni natijaviy omil 87 foiz ta‘sir ko‘rsatkichga ega bo‘lib, tanlangan o‘zgaruvchilar modelga mos ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning «**Ta‘minot zanjiri boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish yo‘llari**» deb nomlangan uchinchi bobida meva-sabzavot ta‘minoti zanjirining dastlabki ishtirokchilari xususan, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari ishlab chiqaruvchilarni mikromoliya tashkiloti tomonidan moliyalashtirish mexanizmi hamda O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotlar ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar prognozi ko‘rib chiqilgan.

Quyidagi 3-rasmda berilgan ma‘lumotdan ko‘rishimiz mumkinki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari subyektlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sezilarli qismini egallamoqda. Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 5000 qishloq aholisida 508 ming gektar yer mavjud. Shunga qaramay, ular kam daromad oluvchi qatlam hisoblanadi. Fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning meva-sabzavot yetishtirish

¹⁴Muallif tomonidan tuzilgan

umumiy hajmidagi ulushlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari boshqa turdagi xo‘jaliklar va tashkilotlarga nisbatan katta qismni egallaydi. Xususan, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi dinamikada pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda: Meva-sabzavotlar uchun mos ravishda 2019-yildagi 58,2 va 66,7 foizdan 2023-yilda 51,4 va 58,3 foizgacha.



3-rasm. Meva-sabzavotlar umumiy hajmida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi (foizda)¹⁵

Bu pasayish tendensiyasi meva-sabzavotchilik tarmog‘iga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatibgina qolmay, qishloq aholi punktlarining oziq-ovqat xavfsizligi va barqarorligiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu borada meva-sabzavotchilik tarmog‘ini moliyalashtirish uni rivojlantirishning zaruriy shartlaridandir. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, barqaror rivojlanishni ta‘minlash va infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi. Bu tarmoqqa kiritilayotgan sarmoya nafaqat qo‘llab-quvvatlabgina qolmay, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz doirasida taklif etilayotgan moliyalashtirishning an‘anaviy moliyalashtirishga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:


oldindan to‘liq to‘lov va moliyaviy xavfsizlik. Avans to‘lovini to‘liq oldindan berish dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga moliyaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlab, ularning kunlik xarajatlarini qoplash, foizlarni qaytarmasdan zarur xomashyo va asbob-uskunalarni xarid qilish imkonini beradi;

dehqon va tomorqa xo‘jaliklarni qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish. Ushbu moliyalashtirishni taqdim etgan mikromoliya tashkiloti yuqori sifatli urug‘lik va o‘g‘itlarni tanlash imkonini beruvchi naqd pul mablag‘larini taqdim etadi, bu esa hosildorlikning oshishiga olib keladi;

kelishuvlar orqali narxlarning o‘zgaruvchanligini kamaytirishga yordam beradi. Bu bozor tebranishlari sharoitida barqarorlikni ta‘minlab, narxlarning keskin tushib ketishidan himoya qiladi.

4-rasmda taklif etilayotgan moliyalashtirish turining ishlash mexanizmi ko‘rsatib o‘tilgan.

¹⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan.



4-rasm. Taklif etilayotgan moliyalashtirish turining ishlash mexanizmi ¹⁶

1. Jarayon buyurtmachi/yetishtiruvchining mikromoliya tashkilotiga ariza topshirishi bilan boshlanadi.

2. Mikromoliya tashkiloti va buyurtmachi/yetishtiruvchi o'rtasida salam shartnomasi tuziladi. Bu shartnoma bo'yicha mahsulot kelgusida yetkazib berilishi evaziga oldindan to'lov amalga oshiriladi.

3. Mikromoliya tashkiloti va iste'molchi o'rtasida savdo shartnomasi tuziladi. Bu shartnoma mahsulotni sotib olish shartlarini belgilaydi.

4. Mikromoliya tashkiloti buyurtmachi/yetishtiruvchini moliyalashtiradi.

5. Buyurtmachi/yetishtiruvchi mahsulotni iste'molchiga yetkazib beradi.

6. Iste'molchi mikromoliya tashkilotiga moliyalashtirishni qoplaydi.

Islom banklari bo'lmagan mamlakatlarda salam moliyalashtirish instrumentini tatbiq etish murakkab, ammo imkonsiz emas. Quyidagi qadamlar orqali bu jarayonni amalga oshirish mumkin:

huquqiy asosni o'rganish (mamlakatning moliyaviy qonunchiligini chuqur o'rganish, salam shartnomasiga o'xshash mavjud shartnoma turlarini aniqlash, qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash);

moliyaviy institutlarni jalb qilish (an'anaviy banklar, mikrokredit tashkilotlari yoki moliyaviy kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatish, salam asosidagi mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik qilish). Pilot loyihani ishlab chiqish (kichik miqyosda salam asosidagi moliyalashtirish loyihasi ishlab chiqish);

risk boshqaruvi tizimini yaratish (salam bilan bog'liq xatarlarni aniqlash masalan, mahsulot sifati, yetkazib berish muddati, xatarlarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish, ya'ni sug'urta, zaxira fondlari);

mijozlarni o'qitish va jalb qilish (potensial mijozlar, ya'ni yetishtiruvchilar uchun salam haqida ma'lumot berish va ularni jalb qilish);

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

monitoring va baholash tizimini joriy etish (pilot loyiha natijalarini muntazam kuzatib borish, muammolarni aniqlash va tezkor hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish);

xalqaro hamkorlik (Islomiy moliya rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, xalqaro Islomiy moliya tashkilotlari bilan hamkorlik o‘rnatish).

3-jadval

Tahlil uchun olingan o‘zgaruvchilarning tasviriy statistikasi¹⁷

O‘zgaruvchilar		Respondentlarning mos kategoriyalardagi soni	Respondentlarning mos kategoriyalardagi ulushi, %
Respondentning ijtimoiy-iqtisodiy holati	Yuqori	15	15.2
	O‘rta	80	80.8
	Past	4	4.0
Respondent mablag‘manbalari	O‘z mablag‘lari	68	68.7
	Boshqa	22	22.2
	50/50	9	9.1
Respondentning mikro moliya tashkiloti xizmatidan foydalanishga munosabati	Ha	80	80.8
	Yo‘q	19	19.2
Respondentning oldindan to‘liq to‘lovni olishga munosabati	Ha	64	64.6
	Yo‘q	35	35.4

Oldindan to‘liq avans to‘lovlarning va bu turdagi mikromoliya tashkiloti bilan ishlash borasidagi ahamiyati miqdoriy jihatdan regression tahlil yordamida amalga oshirilganda, quyidagi natijalar olingan. Model uchun olingan o‘zgaruvchilar haqida ma’lumotni quyidagi tasviriy statistikadan ko‘rishimiz mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo‘yicha respondentlarning aksariyati o‘rta toifaga to‘g‘ri keladi, bu 80,8 foizni tashkil qiladi. Yuqori darajaga ega respondentlar 15,2 foizni tashkil qiladi va faqat 4 foizi o‘zlarini past ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ega deb tasniflaydi.

Respondentlarning moliyaviy ahvoli tahlili shuni ko‘rsatadiki, 68,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyati uchun o‘z mablag‘lariga tayanadi, 22,2 foizi boshqa moliyalashtirish manbalaridan foydalanadi va faqat 9,1 foizi aralash ham o‘zining, ham tashqi mablag‘lardan foydalanadi. Mikromoliya tashkiloti xizmatlardan foydalanish istagi haqida so‘ralganda, aksariyat 80,8 foiz respondentlar qishloq xo‘jaligida bunday xizmatlar uchun potensial bozor mavjudligini ko‘rsatib, qiziqish bildirgan. Bundan tashqari, respondentlarning 64,6 foizi avans to‘lovlarni olishga moyilligini bildirgan.

¹⁷So‘rovnoma asosida muallif tomonidan tuzilgan

Eng kichik kvadratlar usulida regression tahlil natijalari¹⁸

	Model 1	Model 2	Model 3	Model 4	Model 5
(Intercept)	1.300*** (0.329)	2.736*** (0.175)	3.172*** (0.212)	1.009** (0.311)	1.009** (0.321349)
avans	0.154* (0.088)	0.213*** (0.045)	0.259*** (0.045)	0.076* (0.041)	0.076** (0.026604)
jinsi	-0.061 (0.289)	-0.149 (0.132)	-0.124 (0.127)	-0.386*** (0.102)	-0.386*** (0.103466)
